



2021- yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatida jami **2 170,8** mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **103,4 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni,
2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda**

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 1 630 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **109,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **49,7 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **107,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,2 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **105,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **43,1 %**) o'sishidir.



**Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish
korxonalari soni (birlikda)**

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.07.2020- yil	01.07.2021- yil	
	Navoiy viloyati	1 519	1 630	107,3
	Navoiy sh.	416	478	114,9
	Zarafshon sh.	121	133	109,9
	tumanlar:			
	Karmana	249	271	108,8
	Konimex	39	36	92,3
	Qiziltepa	221	233	105,4
	Navbahor	181	190	105,0
	Nurota	98	105	107,1
	Tomdi	40	40	100,0
	Uchquduq	58	49	84,5
	Xatirchi	96	95	99,0


Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra (ulushi, % da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy sh. (29,3 %), Karmana (16,6 %) va Qiziltepa (14,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **492,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **87,7** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **4,4** punktga kamayib, **22,7** % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida yirik qurilish tashkilotlari
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **58,2 %** i yoki 2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **4,3 %** kamaygan), Navoiy shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,1 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **4,5 %** kamaygan) va Qiziltepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **19,2 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **14,6 %** ko'paygan), ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **51,6 %** i to'g'ri kelib, 2020-yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,7** punktga oshdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **110,4 %** ni tashkil etgan holda **1 120,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **25,7 %** ni tashkil etdi yoki **558,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **106,8 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **397,2** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 773,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **18,3 %** va **81,7 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2021- yilning yanvar-iyun oyida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulki		Davlat mulki	
		mlrd. so'm	Ulushi, % da	mlrd. so'm	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	2 170,8	1 773,6	100,0	397,2	100,0
Navoiy sh.	606,9	555,2	31,2	51,7	13,0
Zarafshon sh.	413,8	68,3	3,9	345,5	87,0
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	201,9	201,9	11,4		
Konimex	33,7	33,7	1,9		
Qiziltepa	339,0	339,0	19,1		
Navbahor	170,9	170,9	9,6		
Nurota	138,3	138,3	7,8		
Tomdi	17,5	17,5	1,0		
Uchquduq	35,0	35,0	2,0		
Xatirchi	213,8	213,8	12,1		

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar-iyun oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 75,8 % i yoki **1 644,7** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

75,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **492,2** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 22,7 % ni tashkil etdi.

22,7 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 120,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 51,6 % ni tashkil etdi.

51,6 %

Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **558,3** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 25,7 % ni tashkil etdi.

25,7 %




**2021- yilning yanvar-iyun oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Navoiy viloyati	2 170,8	103,4	1 661,0
Navoiy sh.	606,9	102,9	438,5
Zarafshon sh.	413,8	101,4	353,8
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	201,9	104,2	166,1
Konimex	33,7	100,5	18,3
Qiziltepa	339,0	106,3	257,4
Navbahor	170,9	103,4	112,9
Nurota	138,3	103,8	93,0
Tomdi	17,5	104,5	8,3
Uchquduq	35,0	105,2	24,9
Xatirchi	213,8	103,0	187,7

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **25,9 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **14,1** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **19,9** punktga ko'payib, **85,5 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-iyun oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **3,3** punktga kamayib, **3,4 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **14,5 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **5,8 %** kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **85,5 %** (**8,7 %** ko'payish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **6,6 %** kamaydi va **20,0 %** ni tashkil etdi. Qolgan **80,0 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **17,8 %** ko'paydi.

ulushi, % da



2020- yil
yanvar-iyun

2021- yil
yanvar-iyun

2021- yil
yanvar-iyun

Navoiy viloyatida qurilish ishlari

14



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-iyun oylarida**

mlrd. so'm


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari
Navoiy viloyati	2 170,8	1 644,7	309,4	216,7
Navoiy sh.	606,9	480,5	102,6	23,8
Zarafshon sh.	413,8	235,9	81,5	96,4
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	201,9	166,3	25,2	10,4
Konimex	33,7	25,9	4,5	3,3
Qiziltepa	339,0	296,6	29,8	12,6
Navbahor	170,9	123,0	24,2	23,7
Nurota	138,3	107,1	14,4	16,8
Tomdi	17,5	13,0	1,9	2,6
Uchquduq	35,0	19,9	7,0	8,1
Xatirchi	213,8	176,5	18,3	19,0

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar
qurilishining ulushi, % da




Bino va inshootlar qurilishi,
jamiga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-iyun oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Qiziltepa tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 87,5 % i yoki **296,6** mlrd. so'm), shuningdek, Xatirchi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 82,6 % i yoki **176,5** mlrd. so'm), Karmana tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 82,4 % i yoki **166,3** mlrd. so'm), yuqori ulushga ega.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Uchquduq tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 20,0 % yoki **7,0** mlrd. so'm), Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 19,7 % i yoki **81,5** mlrd. so'm), Navoiy shahri (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 16,9 % i yoki **102,5** mlrd. so'm), da qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishi,
jamiga nisbati, % da**



**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,
jamiga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 23,3 % i yoki **96,4** mlrd. so'm), Uchquduq tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 23,0 % i yoki **8,1** mlrd. so'm), Navbahor tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 13,9 % i yoki **23,7** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'mda

Navoiy sh.
606,9

Zarafshon sh.
413,8

Qiziltepa t.
339,0

Xatirchi t.
213,8



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Navoiy shahri (606,9 mlrd. so'm), Zarafshon shahri (413,8 mlrd. so'm), Qiziltepa (339,0 mlrd. so'm), Xatirchi (213,8 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 202-85-20; (79) 223-54-73